

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PARANTEZ BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

**Dilnoza Jamoliddinova**

Filologiya fanlari doktori, professor  
Qo'qon davlat pedagogika universiteti

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini lingvopoetik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bo'lgan qiziqish juda kuchaydi. Ayni shu qiziqish natijasi o'laroq ko'plab ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa tadqiqot ishlari maydonga keldi.

Har qanday badiiy asar tili badiiy matn sifatida tilning muhim vazifalaridan biri bo'lmish estetik vazifani reallashtiradigan yaxlitlik ekanligi aksar tilshunoslar tomonidan aytiladi. O'zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasini monografik aspektida jiddiy tadqiq etgan M.Yo'ldoshev ham bu fikrdan kelib chiqqan holda shunday yozadi: "Badiiy asar tilini tilning aynan – estetik vazifasining namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi sohani "lingvistik poetika" – "lingvopoetika" deb nomlash filologiya ilmida ancha turg'unlashgan hamda "lingvistik poetika"ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o'rini aniqlashtirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan". Bu fikr, albatta, dunyo tilshunosligiga ham, shu jumladan o'zbek tilshunosligiga ham daxldor.

Badiiy matnda tilning estetik vazifasining namoyon bo'lishi, ya'ni matn lingvopoetikasi o'rganilar ekan, ayni vazifaning amalga oshishida ishtirok etadigan barcha til birliklari diqqat markazida bo'lishi lozimligi tabiiy. Ammo M.Yo'ldoshev o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'rinli ko'rsatib o'tganidek, "...badiiy matnda barcha birliklar, vositalar aynan teng badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmaydi. Badiiy matnda muayyan til birliklari, til vositalari alohida, ayricha poetik qimmat kasb etadi, boshqalari esa tasvirda ishtirok etsa ham, poetik jihatdan passivroq bo'ladi. Yaxlit badiiy matn yoki muayyan badiiy kontekstga ko'ra, muayyan til birligi estetik jihatdan birinchi planga chiqadi va qo'shimcha, yangi badiiy ma'nolar ifodachisiga aylanadi.

Bu hodisa dastlab o'tgan asrning 20-yillarida Praga lingvistik to'garagi vakillari tomonidan qayd etilgan va "aktualizatsiya" termini bilan nomlangan. Til vositalarining badiiy matnda bunday poetik aktuallashuvi tovushdan tortib sintaktik strukturalargacha bo'lgan birliklar doirasida o'ziga xos tarzda kuzatiladi, ya'ni tilning barcha sathlariga oid bo'lgan birliklar badiiy matnda poetik aktuallashishi, turli badiiy ma'nolar bilan to'yinishi mumkin".

Bu nuqtayi nazardan parantezalar ekspressiv sintaksisning muhim birligi sifatida badiiy matnda poetik aktuallashish imkoniyati juda katta bo'lgan sintaktik vositadir. Parantezalarning aksariyati badiiy matnda sezilarli va o'ziga xos lingvopoetik qimmatga ega. Albatta, parantezalardagi bu lingvopoetik qimmatning yuzaga kelishida parantezaning o'zi bevosita aloqalangan asosiy gap (undagi bo'laklar), shuningdek, umuman matndagi boshqa mazmunan aloqador birliklar bilan integrativ munosabatlari, ya'ni ularning uyg'unlashuvi muhim rol o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, hech qanday paranteza alohida olinganda, lingvopoetik qimmatga ega emas, u bu qimmatni faqat matn ichida oladi.

Avvalo aytish mumkinki, parantezalar, ayniqsa, ularning kiritma turi gap yoki matnning sintagmatik bir xilligiga, intonatsion bir tusligiga, monotonligiga o'zgartirish kiritadi. Sir emas, gap yoki matndagi sintaktik strukturaning bir xilligi, bir qolipdaligi o'quvchini zeriktiradi, mazmunning idrok etilishini susaytiradi, matnning estetik ta'sir quvvatini pasaytiradi. Parantezalar tabiiy ravishda gapning yoki matnning sintagmatik strukturasi "buzishi", ulardagi gorizontaal sintaktik aloqalarni "yiqitishi" barobarida matnga, ta'bir joiz bo'lsa, kutilmagan bir ta'kid, ekspressivlik olib kiradi. Paranteza vositasida gap yoki matn qismlarga, bo'laklarga bo'linadi, intonatsion har xillikni yuzaga keltiradi. Masalan, Bir kuni darsdan qaytayotib "marshrutka" bekatida mendan bir kurs quyi o'qiydigan Matlubani ko'rib qoldim gapiga qaraganda Bir kuni darsdan qaytayotib "marshrutka" bekatida Matlubani ko'rib qoldim (U mendan bir kurs quyi o'qirdi) (Erkin A'zam, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi) tarzidagi kiritmali gap ekspressivroq va bu gapda tegishli mazmuniy qismlar alohida ta'kid olgan, badiiy-poetik ta'kid miqdori ortgan.

Yo'l-yo'lakay aytish joizki, ayrim tadqiqotchilar "kiritmalar grammatik jihatdan shakllangan tayyor gap strukturasi kiritilib, gapdagi grammatik aloqani ham, tugal intonasiyani ham uzib qo'yishini" ta'kidlaydilar. Aslida kiritmalar ham tayyor gapga oldindan rejalashtirilmagan holda kiritilmaydi, balki o'quvchida ana shunday "rejalashtirilmagan" ga o'xshash tasavvur tug'diradi, "ayni shu holat nutqda kiritmalar semantik qimmatining aktuallashishi uchun sharoit yaratadi". Bu fikr, ya'ni kiritmalarning faqat tasavvurdagina tayyor gapga kiritilayotgandek bo'lishi A.G'ulomov tomonidan ham "kiritma gaplarning asosiy xususiyatlaridan yana biri ularning ma'lum gapga nutq momentida tug'ilib qolgan ehtiyojga ko'ra xuddi kutilmagandek (ta'kid bizniki. – D.J.), birdan kiritilishidir" tarzida alohida ta'kidlangan. Aslida esa yozuvchi o'z fikrining ifodasi uchun asosiy gap qolipini tanlar ekan, badiiy niyatiga muvofiq agar parantezaga ehtiyoj mavjud bo'lsa, mazkur qolipni tanlash barobarida paranteza shaklini va o'rnini ham birdaniga tanlaydi. Tabiiyki, bunday holatlarda asosiy gapdagi grammatik aloqa ham, tugal intonasiya ham uzilib qolmaydi. Yuqorida keltirilgan Bir kuni darsdan qaytayotib "marshrutka" bekatida Matlubani ko'rib qoldim (U mendan bir kurs quyi o'qirdi) yoki Bir kuni darsdan qaytayotib "marshrutka" bekatida Matlubani (U mendan bir kurs quyi o'qirdi) ko'rib

qoldim kiritmali qo'shma gapga qaytadigan bo'lsak, asosiy gap - Bir kuni darsdan qaytayotib "marshrutka" bekatida Matlubani ko'rib qoldim gapidagi grammatik aloqada hech bir uzilish yo'q, bu gapning intonasiyasi ham tugal, aks holda mazkur sintaktik konstruksiyani alohida mustaqil gap sifatida baholab bo'lmas edi. Shuning uchun ham yuqoridagi kabi talqinlarga qo'shilish qiyin. Parantezali gap yoki parantezali matn yozuvchining muayyan badiiy maqsadi (boshqa uslubda bo'lsa, boshqa biror maqsad) bilan bog'liq bo'lgan nutq tuzish usuli, xolos.

Badiiy matndan olingan mana bu misolni ko'raylik: *Bundan ko'p yillar burun, Otashqalb endigina oqlangan kezlar Moviyko'z (allaqachon Alvastixonimga aylanib ulgurgan edi) makkoralarga xos bir shafqatsizlik bilan o'smoqchilab so'ragan* (Erkin A'zam, "Shoirning to'yi" qissasi). Shubhasizki, bu gap *Bundan ko'p yillar burun, Otashqalb endigina oqlangan kezlar allaqachon Alvastixonimga aylanib ulgurgan Moviyko'z makkoralarga xos bir shafqatsizlik bilan o'smoqchilab so'ragan* tarzida tuzilishi, ya'ni kiritma gap shaklidagi paranteza kengaytirilgan so'z birikmasi qolipida tuzilib, mazkur paranteza bevosita aloqalanadigan bo'lak (Moviyko'z so'zi bilan ifodalangan ega) bilan grammatik aloqaga kiritilishi mumkin edi. Ammo u holda gapning sintaktik strukturasi sifatdosh boshqaruvidagi ikkita murakkab so'z birikmasi yuzaga kelar, umuman, gap strukturasi mazmunning idrok etilishi qulay bo'lmas edi. Gapning alohida ta'kidlanmoqchi bo'lingan qismi (asar qahramoni Moviyko'zning ikki holati) ochiq ifodalanmagan bo'lardi. Shuning uchun ham mahoratli yozuvchi Erkin A'zam benihoya kuchli kinoyaviy ruhda yozilgan mazkur qissasida ayni fikr ifodasi uchun aynan yuqoridagi kabi parantezali gapni tanlagan. Buning natijasida gap strukturasi idrok etish uchun qulaylashgan, sifatdosh boshqaruvidagi murakkab so'z birikmasining biri gap shakliga kiritilib, paranteza pozitsiyasiga o'tkazilgan. Ma'lumki, paranteza, ayniqsa, uning kiritma turi asosiy gapdan tamoman farqli intonasiya bilan aytiladi (yoki o'qiladi), ana shunga ko'ra gapning intonatsion oqimidagi monotonlikka barham berilgan. Ayni paytda parantezaning ayricha intonasiyasi uning ajratib alohida ta'kidlanishini ta'minlagan. Zotan, tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, "kiritma va asosiy gap o'z mustaqil modalligiga va alohida, bir-biriga tobe bo'lmagan o'z aktual bo'laklanishiga ega: kiritma – hamisha alohida remadir. Kiritma gap shaklida bo'lganida bu juda aniq ko'rinadi, lekin nopredikativ kiritmalar ham ayni xususiyatga sohibdir". Ana shu sharoitlar asosiy gapdagi ega bilan aloqalangan mazkur gap shaklidagi allaqachon Alvastixonimga aylanib ulgurgan edi parantezasining poetik qimmat kasb etishiga, badiiy aktuallashuviga imkon bergan.

Mahoratli yozuvchilar gapdagi muayyan bo'lakni badiiy niyatiga muvofiq alohida ta'kidlash uchun mazkur bo'lakni paranteza, xususan, kiritma pozitsiyasiga o'tkazishi mumkinki, bunda ham kiritma poetik jihatdan kuchli darajada aktuallashadi. Masalan: Uning gapiradigan gaplari ularning ko'ngillarida tugilgan og'ir va chigal tugunchakni echib yuborajak, yoki yana battarroq chigallashtirib, ikki yosh narsani –

yana necha oy! – bir-biridan ajratib tashlayajakdi (Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani). Ko'rinib turganiday, yana necha oy birikmasi ayni paranteza pozitsiyasiga ko'ra kuchli poetik ta'kid olgan. Agar bu birikma kiritma emas, balki odatdagi gap bo'lagi, ya'ni hol pozitsiyasiga qo'yilganda edi, u o'zining lingvopoetik qimmatini yo'qotgan bo'lardi, mazkur sintaktik birlik poetik ta'kidli tasvir uchun emas, neytral tasvir uchun xizmat qilgan bo'lardi. Qiyoslang: Uning gapiradigan gaplari ... ikki yosh narsani yana necha oy bir-biridan ajratib tashlayajakdi // Uning gapiradigan gaplari ... ikki yosh narsani – yana necha oy! – bir-biridan ajratib tashlayajakdi. Mazkur ikki gap o'rtasidagi lingvopoetik farqning nechog'lik katta ekanligini batafsil isbotlab o'tirishning hech bir zaruriyati yo'q.

Parantezalarning badiiy matndagi lingvopoetik imkoniyatlari haqida fikr yuritganda, ularning kirish va kiritma turlaridagi bu imkoniyatlarning bir-biridan juda ancha farqli ekanligiga ham e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Bunday farqning mavjudligi kirish va kiritmalarning semantik-funksional mohiyati bilan bog'liq, ya'ni barcha tilshunosliklarda deyarli bir xil e'tirof etilganiday, kirishlar so'zlovchining o'z fikriga munosabatini bildiradi, kiritmalar esa turli qo'shimcha ma'lumot ifodalaydi. Kirishlar va ular ifodalaydigan ma'no-mazmun deyarli trafaret holatga kelib bo'lgan, ehtimol, chamasi, shekilli, darhaqiqat, albatta, demak, xullas, qisqasi, menimcha, esiz, baxtimizga, aytganday, o'ylaymanki, aniqki, **birinchidan**, qolaversa, shunday qilib, buning ustiga, mening nazarimda, uning aytishicha, rostini aytsam, menga qolsa, gap shundaki, men sizga aytsam kabi deyarli barcha kirishlar va ularning ma'nolari qoliplashib bo'lgan (ishning ikkinchi bobida ko'rganimiz kabi, shuning uchun ularni konkret semantik guruhlariga ajratish mumkin). Nutq tuzuvchi deyarli ana shu qoliplashgan kirish ifodalar doirasida ish ko'radi, aytish mumkinki, nutq tuzuvchi o'zi yangi kirishlar yasamaydi yoki tuzmaydi. Kiritmalar esa bunday xususiyatga ega emas. Kamida, nutq tuzuvchi avvaldan tayyor kiritma ifodalar doirasida ish ko'rmaydi, zotan, tayyor kiritma ifodalarning o'zi yo'q (ishning ikkinchi bobida ko'rganimiz kabi shuning uchun ularni konkret semantik guruhlariga ajratib bo'lmaydi, faqat funksional-semantik jihatdan qo'shimcha ma'lumot, izoh-tushuntirish, ekspressiv baho ifodalovchi kiritmalar tarzida uch asosiy tipini farqlash mumkin, xolos). Kiritmalar har nutq vaziyati ehtiyoji, nutq tuzuvchining muayyan maqsadi bilan bog'liq holda yangidan tuziladi. Rus badiiy adabiyotidagi til jarayonlarini o'rgangan tadqiqotchilar ishonch, taxmin, chama, noma'lumlik kabi bir qancha ma'nolarni ifodalovchi kirishlar, modal so'zlar yoki yuklamalar vositasida personaj nutqini belgilash eng oddiy va "eski" leksik-sintaktik usul ekanligini aytadilar.

Yozuvchining badiiy til mahoratiga baho berishda, uning lingvopoetik mahoratini o'rganishda parantezalarning kirish turidan ko'ra kiritma turi ko'proq diqqatga molik deb qaralmog'i maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlash o'rinlidir.

Ammo ayrim tadqiqotchilar, masalan, H.Xoliqov atoqli adib A.Qahhorning badiiy til mahoratini uning asarlarida parantezalar, xususan, kirishlarning qo'llanishi misolida ko'rsatmoqchi bo'ladi. U shunday yozadi: "Yozuvchining til mahorati haqida gapirganda, uning ma'lum maqsadlar ifodasi uchun kirishlarga ham murojaat qilganini ta'kidlash zarur. Adib qo'llagan kirishlar, yuqorida qayd etilganidek, turli ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan." Tadqiqotchi ishining davomida albatta, darhaqiqat, shubhasiz, to'g'ri, aftidan, xayriyat, rostini aytsam kabi bir qancha kirishlarni tahlil etadi. Masalan, albatta haqida shularni yozadi: "Bu so'z modal so'z sifatida anglashilayotgan predmet, voqelikning yuzaga chiqishiga ishonch ma'nosini anglatadi va kirish vazifasini bajarib, badiiy asarlarda shu ma'no ifodasi uchun qo'llanadi.

"Sinchalak" qissasida Saida Qalandarovning Zulfiqorov masalasidagi suhbat davomidagi Zulfiqorovning qo'shxotinliligi haqida Saida tilidan aytilgan gapni olaylik: ...Zulfiqorovning xotin ustiga xotin olishi, albatta, ayollarga boy-feodallarcha munosabat, jinoyatdan boshqa narsa emas. Zulfiqorovning turish-turmushi, axloqi, brigadirlik faoliyatini ipidan ignasigacha tekshirib chiqqan Saida shunday xulosaga keladi. Zulfiqorovning qo'shxotinliligi ayollarga bo'lgan feodallarcha munosabatini ko'rsatuvchi dalil ekanligiga ishonch ma'nosi gap tarkibidagi albatta kirish qismi yordamida ifodalangan. Yoki yana o'sha joyda: Zulfiqorov birovdan paxta olib plan to'ldirganligi, albatta, ko'zbo'yamachilik gapida ham voqelikning yuzaga chiqishiga ishonch albatta kirish so'zi orqali o'z ifodasini topgan". Mazkur misollarda albatta kirishi ishonch ma'nosini ifodalagani shubhasiz, ammo bu kirish A.Qahhorning mazkur asaridagina emas, umuman, har kimning har qanday jumlasida, har qanday nutq vaziyatida ham mazkur ma'noni ifodalayveradi. A.Qahhor tuzgan mazkur jumlada ayni ma'noning ifodalanishi yozuvchining xizmati yoki mahorati emas, balki odatdagi qo'llanishdir. Bu so'z va umuman, kirishlar u yoki bu darajada ekspressivlikni ifodalaydi, nutqning ta'sirchanligi uchun xizmat qiladi, lekin buni yozuvchining badiiy mahorati sifatida baholab bo'lmaydi. Qisqasi, mazkur albatta kirishi poetik aktuallashmagan

Albatta, badiiy matnda kirishlar ham ba'zi holatlarda yozuvchining badiiy maqsadiga uyg'un ravishda badiiy-estetik qimmat kasb etishi mumkin. Aytaylik, muayyan bir kirish muayyan bir qahramon nutqida takror va takror qo'llansa, o'ziga xos poetik ta'kid oladi, qahramonni yoki uning biror hissiy holatni ta'kidlashga xizmat qiladi va buni yozuvchining lingvopoetik mahorati sifatida baholash mumkin bo'ladi. Masalan, hajvchi yozuvchi N.Aminovning "Yelvizak" qissasidan olingan quyidagi parchada buni ko'rish mumkin:

– *Voy, namuncha bedavo ekan bu, – dedi Zevarxon nozlanib. – Qurib ketgan ekan-da boshqasi!..*

– *Qani, qo'lingni cho'z! – dedi Bashirjon dadil.*

– *Hozir... voy, -dedi Zevarxon belini tutib, oyog'ini bukarkan. – Oyog'im uvushib qoldi!..*

*Zevarxon majburiy bir qiyofada qo'lini uzatarkan:*

– *Voy, ko'pam shoshilmang! – dedi nozmi, qo'rquvmi yoki hadikkami o'xshash ovoz bilan... Bechora Zevarxon: "Voy!" – degancha o'rnidan turib ketdi.*

Ko'rinib turganiday, voy kirish bo'lagi to'rt marta takrorlangan, Zevarxonning hissiy holatiga urg'u berishga xizmat qilgan, poetik jihatdan aktuallashtirish.

Ayrim hollarda yozuvchi poetik aktuallashtirish maqsadi bilan kirishlarni badiiy matnda kiritma pozitsiyasida qo'llash orqali ham matn ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, *ajabo* so'zi taajjub ma'nosini ifodalaydigan kirish so'z hisoblanadi. Ushbu matnda bu so'z kirish pozitsiyasida qo'llangan:

*Ajabo, chiroyli qiz-juvonlar hamisha tanishdek tuyuladi, qayerdadir ko'rganga o'xshayveramiz ularni (Erkin A'zam, "Bayramdan boshqa kunlar" qissasi). Bu so'z kiritma pozitsiyasida qo'llansa, kuchli poetik ta'kid oladi: Shu rashkdanmi, yo Muqaddasning yaqinligidanmi, bilmadim, o'zimni xuddi lovullab yonayotgan gulxanning taptida toblanayotgandek his qilardim, a'zoyi badanimdan lovullab o't chiqib borardi. Muqaddas esa (ajabo!) go'yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinib, hadeb kular, yuzlari gul-gul yashnab, o'tkinchilarning diqqat-e'tiborini yana ham o'ziga tortar edi (O.Yoqubov, "Muqaddas" qissasi). Ko'rinib turganiday, ajabo so'zi kirish pozitsiyasiga qaraganda, kiritma pozitsiyasida kuchliroq poetik ta'kidga ega.*

Quyidagi misolda inshoollo(h) kirish gapi kiritma pozitsiyasida kelib, kuchli ta'kid olgan, poetik aktuallashtirish: *Faqat so'fi ko'ngildan va uning nozik shishasidan bir narsa anglaydigan odam bo'lmaganligidan bu kattakon ishining oqibatini xayol qilgan vaqtlarida "kelasi yilga (inshoollo!) Hajga ketish nasib bo'ladi" degan umidlar bilan xursand bo'lardi (Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani). Quyidagi gaplarda esa voy tavba, astag'firulloh kirishlari kiritma pozitsiyasida qo'llangan va poetik ta'kid olgan:*

*Oltinoy bu kalta, havorang ko'ylakda xuddi yettinchi-sakkizinchi sinfda o'qiydigan qizchalarga o'xshar, qaddi nozik, beli tegsa chars sinib ketadigan xipchinday ingichka, oyoqlari (voy tavba!) kinodagi raqqosalarning oyoqlariday uzun... (O.Yoqubov, "Adolat manzili" romani). Birov o'q borib uning qo'liga tekkan desa, boshqa birov (astag'firulloh!) naqd og'ziga tekkan deydi (Erkin A'zam, "Aralashqo'rg'on" hikoyasi).*

Ilgariroq ko'rib o'tganimizdek, tilshunoslikda kirishlarni subyektiv munosabat ifodalay olishi, kiritmalarda esa bu xususiyatning yo'qligi, ularning faqatgina obyektiv–izohlovchi tarzida gapga kiritilishi keng e'tirof etiladi. Ammo yuqoridagi misollardan ham anglashilib turganidek, bizningcha, kiritmalarda ham subyektiv munosabat o'ziga xos bir tarzda, ya'ni ekspressiv baholash tarzida hatto odatdagidan kuchliroq ham ifodalanishi mumkin.

Ana shu mulohazalarni inobatga olgan holda biz dissertatsiyadagi tadqiqot jarayonida, ayniqsa, materialga lingvopoetik yondashuv asnosida ayricha e'tiborni, asosan, parantezalarning kiritma turiga qaratganmiz.

Parantezalar matnning semantik va badiiy strukturasi murakkablashtiruvchi hodisadir. Ular matnga tugallangan gapdan katta mazmun olib kirishi bilan xarakterlanadi. Chunki badiiy matnda voqelikni aks ettirishning barcha shakllari muallif o'yining filtridan o'tadi va muallif doimo to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa yo'l bilan tasvirlanayotgan hodisaga o'z munosabatini bildiradi. Lekin u shunchaki sodda qilib aytmasdan, ongli tarzda o'quvchiga badiiy ta'sir etish vositalarini tanlaydi. Xuddi shunday vaziyatda parantez konstruksiyalarga ehtiyoj sezadi. Intonatsion, grafik va sintaktik jihatdan mustaqil bo'lgan, to'g'rirog'i, asosiy gap yoki matndan ajratilgan parantezalar asarda nutqning to'la anglanishi uchun zaruriy informatsiyalarni berish, tinglovchi yoki kitobxon uchun noaniq bo'lgan o'rinlarga aniqlik kiritish, izohlash, eslatish, his-tuyg'ularni ifodalash kabi maqsadlarda qo'llanadi, ana shu maqsadlarning reallashuvi poetik ta'kid olarkan, parantezalar alohida lingvopoetik qimmat kasb etadi.

S.Karimov "O'zbek tilining badiiy uslubi" mavzusidagi doktorlik ishida ham badiiy asar sintaksisida kiritma gaplarning ishlatilishi muallif yoki asar qahramonining ma'lum obyektga, voqelikka o'z shaxsiy munosabatini, mulohazalarini ifoda etishga intilishi bilan bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Shu bilan birga, badiiy asarda kiritmalarning qo'llanilishi yozuvchining individual uslubi bilan ham bog'liq bo'lishiga e'tibor beradi. Parantezalarning badiiy funksiyasi xilma-xildir. Badiiy nutqda kiritmalar oldindan mo'ljallangan badiiy maqsad natijasi sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga muallif kiritma, umuman, parantezalar orqali badiiy asarning ifodaliligini, ta'sirchanligini, umuman, poetik mukammaligini ta'minlashga erishadi. Darhaqiqat, kiritmalar yozuvchi idiolekti bilan bog'liq holda badiiy nutqqa kiritiladi, asarda ularning qo'llanish miqdori emas, balki o'ziga yuklangan badiiy yukni qay darajada yuzaga chiqarib bera olishi muhimdir.

Parantezaning matn ekspressivligini ta'minlashdagi rolini alohida tadqiq etgan R.S.Samoletova parantetik kiritmalarning mohiyatini to'g'ri va yetarli darajada anglamaslik matn mazmunidagi juda ko'p narsalarning, birinchi navbatda, matnning yaxlit mazmunini, muallif pozitsiyasini tasavvur qilishda hal qiluvchi qimmatga molik bo'lgan turli konnotatsiyalarning tamoman e'tibordan chetda qolishiga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. U parantezalar ifoda imkoniyatlarining hajman kattaligini qayd etarkan, ana shunday yo'qotish ko'pincha oddiy kitobxon tomonidan matnda qavs ichida kelgan qismni unchalik muhim emas, keraksiz bir narsa deb tushunilishi oqibatida ham voqe bo'lishini aytadi.

Rus filologiyasida sintaktik strukturasi bo'laklangan, ya'ni tarkibida takror, parsellyatsiya, ilova konstruksiyalar, segmentatsiya, paranteza kabi hodisalar ko'p bo'lgan nasr ko'rinishini "qiymalangan, maydalangan nasr" ("рубленая проза"), shu xususiyatga ega bo'lgan matn sintaksisini esa "qiymalangan sintaksis" ("рубленный

синтаксис”) deb nomlash ham uchraydi. Bu haqda batafsil ma’lumot berar ekan, G.N.Akimova buyuk rus adibi F.M.Dostoevskiyning “Yozuvchi kundaligi” (1873)dan olingan quyidagi gaplarini keltiradi: *“Kecha bir tanishim oldimga kirib qoldi, u dedi: “Sening uslubing o‘zgaryapti, qiymalangan uslubga aylanyapti. Jumlani kesasan, kesasan – kirish gap qo‘yasan, keyin kirish gapga yana kirish birlik qo‘shasan, undan keyin qavs ichida yana nimanidir kiritasan, undan keyin esa yana kesasan, kesasan...”* G.N.Akimova bu o‘rinda yozuvchi “qiymalangan sintaksis” fonida kiritma konstruksiyalarga alohida urg‘u berayotganligiga e’tiborni qaratadi. U haqli ravishda ta’kidlaganidek, har qanday nutqda ekspressiv sintaksis birliklari, xususan, parantezalar qo‘llanganda, yaxlit bir muayyan gap o‘rnida ko‘pincha ikki yoki undan ortiq “jumla” yuzaga keladi, ayni shu sintaktik birliklar birgalikda yaxlit holatdagi gapga qaraganda ham ekspressiv, ham kommunikativ-funksional jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shuni ham aytish kerakki, turli parantezalarni kiritish vositasida qismlarga ajratilgan jumladagi axborot tezroq idrok etiladi, bu tarzda jumla yoki matnni bo‘laklash ayni paytda uni soddalashtirish, uning strukturasi “yengillashtirish”ga olib keladi, go‘yoki qismlab-qismlab berilgan axborot yirik, katta sintaktik konstruksiyalarda berilgan axborotga qaraganda kommunikasiya jarayonida jadalroq anglanadi, bu, ya’ni “nutq zanjirini uzish usullari” asosida “nutqning sintaktik quyushuvi” (“синтаксическое сгущение речи”) estetik imkoniyat sifatida badiiy mulohazalar uchun juda muhimdir.

Ana shu jihatlardan kelib chiqqan holda ba’zi tadqiqotchilar parantezalarning nutqni ekspressiv “yumshatishi” (“разрыхление”), ya’ni ekspressivlikning ifodalanishi uchun “nutq tuprog‘ini yumshatib, donador qilib”, qulay sharoit yaratishi haqida ko‘p gapiradilar. Albatta, badiiy matnda chinakam badiiyatning, poetik intonasiya va poetik ta’kidning tugal ifodalanishida parantezalarning bu xususiyati muhim ekanligini yana ta’kidlash mumkin.

Parantezalar ishtiroki natijasida ana shunday “qiymalangan” sintaktik strukturalarning, ekspressiv-estetik “yumshagan” nutqning badiiy-estetik samaralarini Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, Tohir Malik, O‘.Hoshimov, Erkin A‘zam, Xurshid Do‘stmuhammad kabi ko‘plab o‘zbek yozuvchilarining asarlarida ko‘rish mumkin. Mana ayrim misollar:

*Mingboshining o‘zi uchun shu topda fuqaro qo‘rqinch emas: mingboshi nima desa, yo‘q demaydi fuqaro. Boylar bo‘lsa na fuqaroni bir chaqaga oladi (munisi–ku mayli-ya), na mingboshini (mana munisiga chidab bo‘lmaydi!). Ochiqdan-ochiq so‘kadi... (Cho‘lpon, “Kecha va kunduz” romani).*

*Buning ustiga, “bechora Sultonxonning ma’sum ko‘z yoshlari”, “ikkala ittifoqchi” (Xadichaxon va Poshshaxon)ning ming bir “hillalari” ham (Xotinlar o‘zlari xuddi shu shaklda – “hila-a” deb gapiradilar) yosh va ma’sum bir qizning samimiy tili bilan bir-bir bayon qilindi (Cho‘lpon, “Kecha va kunduz” romani).*

*Tabiiyki, tug'ilayotganda odamzod faryod bilan dunyoga keladi. (Nega?) Tabiiyki, uni darhol ovutishga tushadilar. (Tinchlik kerak!) Tabiiyki, u bir payti yig'idan to'xtaydi. (To'xtamasa-chi?). Ammo ba'zilar shunga odatlanib qoladi (Erkin A'zam, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi).*

*Mana endi, oqibati – yozgi ta'til boshlanib, hamma har yoqqa tarqab ketgan bir paytda men ko'r bo'lib kutubxonada o'tiribman. Kursdoshlarimdan Eshqobil, Shahob, Nurmamat va Rustam qalb amri bilan studentlar zarbdor qurilish otryadi safida Qoraqalpog'istonga ketishgan – davrimizning ulkan inshootlaridan birini bunyod etishda qatnashgani (aqcha ishlab boyvachchalik qilgani); Samad, Jo'ra va Nazar qishloqlariga – "boboy-momoy"lariga ko'maklashgani (bultur o'zlari borib tiklab kelgan devorni qulatib, qaytadan ko'targani); Elvira, Arofat va Barno sog'lomlashtirish lageriga – paxtadan ham oq badanlarini jindek bo'lsa-da qoraytirgani (o'qish boshlangach, tanaffus payti yo'lakda "shokoladrang teri" haqida qizg'in bahslashgani). Men esam, men Navoiy nomidagi kutubxonada o'tiribman... adabiyot tarixidan qayta imtihon topshirgani! (Otoyining tug'ilgan yilini aniqlash uchungina emas, albatta!) (Erkin A'zam, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi).*

Shuni ham aytib o'tish joizki, badiiy matnda gap strukturasi (sodda yoki qo'shma gap) bevosita ichiga kiritilgan parantezalarning poetik aktuallashuvi boshqa holatdagilarga qaraganda kuchliroq bo'ladi, chunki ularning gap strukturasi "begonaligi" tezroq seziladi, tezroq diqqatni tortadi. Quyidagi misollarda buni ko'rish mumkin:

*U yog'ini so'rasangiz (odam aytishgayam uyaladi), ...mendek "zamonaviy" tashkilotchi yigit yoshim o'ttizdan oshib birorta qizning qo'lidan ushlamabman (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi" romani). Kelib-kelib shu Eshonboevni tanlagani esa (Ochil, ayniqsa, o'sha bob muhokamasidan beri Eshonboevni juda past qo'yar edi) Zamirani uning ko'zi oldida yanada past tushirardi (P.Qodirov, "Uch ildiz" romani).*

*Mehmonlar – uchmi-to'rt kishi, ana, yuz-ko'zlaridan aniq-tiniq ajralib turishibdi – mezbonlar qurshovida "gazik" mashinalariga o'tirib, jo'nab ketishdi (Erkin A'zam, "Shoirning to'yi" qissasi). Basharti, Otashqalb tirilib kelsa – umrini uning hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlagan odam biladi-da, axir – shunday jiyani borligini ko'rib, nomusdan qaytib o'lgan bo'lardi (Erkin A'zam, "Shoirning to'yi" qissasi).*

Parantezalar, hatto ularning kiritma turi ham agar o'zi bevosita aloqalangan birliklar ifodalagan narsa-tushunchalar bilan aynan bir narsa-tushunchani ifodalasa, ya'ni bir xil denotatlarni bildirsa, bunday parantezalar badiiy matnda deyarli lingvopoetik qimmatga ega bo'lmaydi. Masalan:

*...Bu tadbir ham o'zini oqlamadi; ancha keyinroq nevarasi Sulton Muhammad (Boysunqurning o'g'li) bobosiga bo'ysunmay, Eronda mustaqil ish yuritdi (Mirmuhsin, "Me'mor" romani). Bu misoldagi Boysunqurning o'g'li parantezasi va asosiy gapda ega vazifasidagi Sulton Muhammad so'zi aynan bir denotatni bildiradi,*

shuning uchun ham bu parantezaning sezilarli lingvopoetik qimmatini haqida gapirish qiyin. Quyidagi misollarda ham shu holatni ko'rish mumkin:

*Bu voqealardan ilgari o'z mavqeining pasayishi, ulkan mamlakatning parchalanib ketishidan cho'chib, hijriy sanasining sakkiz yuz o'n oltinchi yili (1413 milodiy) Ulug'bek Mirzoni katta qo'shin bilan Farg'ona ustiga yubordi* (Mirmuhsin, "Me'mor" romani).

*Mana shu vahima va tashvishlar bilan liq to'lib Toshkentga tomon qanot qoqqan depeshalar (rasmiy telegrammalar) voqeaning uchinchi kunida Toshkentdan O'lka harbiy sudining sayyor hay'atini uchirib keldi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani).

Mahoratli yozuvchilar asosiy gapdagi muayyan qismning takroridan iborat parantezalarga ham ko'p murojaat qiladilar. Bunda muayyan bir fikr ikki marta ta'kidlanib ifodalanadi, asosiy gapda ifodalangan bir fikr ikkinchi marta parantezada alohida emfatik urg'u bilan, undovli intonasiya bilan ta'kidlanadi, bu esa parantezaning o'ta kuchli darajada aktuallashuviga imkon beradi, quyidagi misollar buni dalillaydi: *(Razzoq so'fi) faqat eshonbobo bilan birga (faqat o'sha kishi bilan!) to'ylarga, katta ziyofatlar, qovun va meva sayillariga boradi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani). *Ularning soyalarida bu zot askariy rutbalaridagina ajrab, kissasi ko'p ham qoqlanmasdan, o'lkaning u chekkasidan bu chekkasiga "surgun" bo'lib (o'z istagi bilan "surgun" bo'lib!) kelgan va munda... xususiy zakunchilik kasbiga kirishgan* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani). *So'fi ko'zlarida marvarid donalariday yirik-yirik yoshlari ko'ringani holda, bilganicha aytib berdi. Pir kulib turib (kulib turib!) eshitdi* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani). *Bu jihati mendan o'tganmikan desa, Elchiyev unaqa emas, tabiatan dali-g'uli, suyunsa - yetti mahallaga jar solgudek, kuyinsa ham bir kun ichiga yutadi, ikki kun yutadi, axiyri, ochiq-oshkor portlaydi* (Mana, portlab yotibdi-ku!). *Ishqilib, shu qizning bir dardi bor* (Erkin A'zam, "Javob" qissasi). Parantezalardan keyin qo'yilgan undov belgisi ham mazkur ta'kidni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ayrim tadqiqotchilar parantezali gap yoki parantezali matnga ikki planlilik xos ekanligini aytadilar. Kommunikativ vazifaning ikki **proyeksiyasi** haqida gapirar ekan, ular bir proyeksiya asosiy gap yoki matnda, ikkinchi **proyeksiya** esa bevosita parantezada namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar, bunda asosiy gap yoki matnga kiritiladigan paranteza yo so'zlovchining aytmoqchi bo'lgan fikriga munosabatini, yo so'zlovchining tinglovchiga qo'shimcha murojaatini yoki muallifning qo'shimcha izohini ifodalashiga urg'u beradilar va parantezadagi kommunikativ plan, fikriy yo'nalishning asosiy gapdagidan farqli bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Aksar hollarda ana shunday matnlar parantezaga ko'ra ikki yoqlama semantik strukturaga ega bo'lishini, ya'ni go'yoki o'ziga xos ikki matn – matn ichida matn yuzuga kelishini ham yo'l-yo'lakay aytib o'tadilar.

Bunday parantezali badiiy matnlarda voqelik bir paytning o'zida turli nuqtayi nazarlardan yoritilayotgan ko'p qirrali va ko'p o'lchovli butunlikning belgilariga ega

bo'ladi, voqealarni va ular bilan bog'liq tahlil, muhokama va tegishli oqilona baholashlarni birdaniga idrok qilish birinchi planga chiqadi. Parantetik kiritmalarning badiiy qimmatini haqida fikr yuritgan tadqiqotchilar ayni shu mulohazalarga asoslangan holda parantezalar matndagi fikrning ikki yoki undan ortiq yo'nalishini tinglovchi //o'quvchi xotirasida tutib turishga, ichki emotsional taranglik tasavvurini tug'dirishga ko'mak berishini ham aytadilar.

Badiiy matn qismlari bog'lanishining kompozitsion-struktur shakllariga e'tiborni qaratgan I.R.Galperin parantezalar bayonning asosiy yo'nalishini "uzib", matnga kirar ekan, ba'zan bayonning ikkinchi planini hosil qilishini aytadi. U bu holatni film plenkasini montaj qilishga qiyoslaydi, ya'ni montajchi tegishli badiiy maqsadga muvofiq qandaydir xotiralarni "ikkinchi plan" sifatida muayyan ketma-ketlikdagi kadrlar zanjirining ichiga kiritadi. I.R.Galperin to'g'ri ta'kidlaganidek, parantezaning ikkinchi fikriy yo'nalish ifodachisi bo'lishi doimiy holat emas. Ammo ayrim tilshunoslar "parantezani o'z ichiga olgan har qanday gap ichki ikki planlilikka ega bo'lgan sintaktik kompleksdir" degan qat'iy fikrni ilgari suradilarki, bu fikrga qo'shilish qiyin. Chunki barcha parantezalarga kommunikativ ikki planlilik xos deb bo'lmaydi. Masalan, *Azixon munkayganicha borib tuproq uyumi ustiga ajib bir chaqqonlik bilan (jindek maqtanganlik aralash) silkinib qanorni irg'itdi* (Said Ahmad, "Qirq besh kun" romani) gapidagi jindek maqtanganlik aralash parantezasida asosiy gapdagi fikriy yo'nalishdan farqli boshqa yo'nalish, ya'ni ikkinchi plan yo'q. Shuning uchun parantezalarning bir kommunikativ yo'nalishli va ikki kommunikativ yo'nalishli turlarini farqlash maqsadga muvofiq. Yuqorida aytib o'tilgan mulohazalarga ko'ra aynan ikki kommunikativ yo'nalishli parantezalar badiiy matnda sezilarli darajada yuqori lingvopoetik qimmatga ega bo'ladi.

Paranteza va u kirgan gapning mazmunida farqli kommunikativ perspektivaning, ya'ni farqli fikriy yo'nalishning mavjud bo'lishi, ya'ni ikki farqli kommunikativ yo'nalishdagi fikrning bir gap yoki matn doirasida birlashishi mazmuniy va intonatsion monotonlikka barham beradi, go'yoki o'ziga xos polifoniya, ya'ni ko'p ovozlilik yuzaga keladi. Bu, albatta, matnning ekspressivlik darajasiga, parantezaning poetik ta'kid olishiga kuchli ta'sir qiladi.

Avvalo, paranteza ishtiroki bilan go'yoki matn ichida matn yuzaga kelishiga to'xtalaylik. M.Yo'ldoshev bunday hodisani boshqa bir qator tilshunoslar kabi "intertekstuallik" deb nomlagan. U shunday yozadi: "...Muayyan badiiy matn tarkibida o'zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir. Ta'kidlab o'tilganiday, har qanday badiiy matn intertekstual bo'lishi shart emas, bu yozuvchining badiiy maqsadi, uslubi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy matnga olib kiriladigan har qanday boshqa matn yoki uning unsuri asosiy matn mazmuni va lisoniy qurilishi bilan uyg'unlashib, yozuvchining estetik niyati ro'yobi uchun xizmat qiladi. Badiiy matnning intertekstualligi xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Asosiy matnga olib kiriladigan o'zga matn yoki uning

muayyan unsuri yozuvchi niyatiga ko'ra asosiy matn strukturasi turli qismlaridan joy olishi mumkin." Paranteza ishtirokida badiiy matnda o'ziga xos intertekstuallik yuzaga kelishining yorqin namunasini Erkin A'zam asarlarida ko'rish mumkin. Yozuvchi Mashrab g'azallarini uning so'ziday paranteza shaklida matnga olib kirgan, intertekstuallik vositasida chiroyli polifoniyani ham yuzaga keltirgan: *Yopiray, bu qanday gap, bu qanday imtihon? Shu ham savol bo'ldimi – "Mashrabning oti nega Mashrab"?! Avvalo, uning oti Mashrab emas – Boborahim, taxallusi – Mashrab.* ("Quddussaro aziz Xojam Mashrab otimni qo'ydilar".) *"Onasining qornida yig'lagani uchun" emish!.. Mashrab dunyoga isyon bilan keldi, o'z davriga isyon bo'lib yashadi, isyon bilan ketdi!* («Dunyoga kelib ranju baloni ko'rub o'ttum, Yuz ranju baloni shiddatidin o'rgulub o'ttum».) *Mashrab bunday iprisqi, bunday bachkana emas edi... Ba'zi bir zamondoshlari singari saroy shoiriga aylanib, saodatda yashab, tinchgina ijod etishi mumkin edi-ku!* ("Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi, "Borg'il nari" deb ketig'a bir shappatalab o'ttum".) *Nega u hayot va ijodda oson yo'lni tanlamadi?* (Erkin A'zam, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi).

Ayrim hollarda yozuvchi asosiy matnga ikkinchi plan sifatida paranteza shaklidagi matnni kiritadi, intertekstuallik yuzaga keladi va matniy paranteza poetik aktuallashadi: ...Xo'sh, buni aslida kim yozgan? Balolarga qolishdan qo'rqmay aytadigan bo'lsak, kitobning asosi aksariyat hollarda nomi ro'yxatning oxirrog'ida turgan kimsaga tegishli bo'ladi!

*(Hadeb o'zgalardan olmay, o'zimizdan ham bir latifa qo'shib ketaylik. Quyvon kitob yozib, maslahat so'ragani bo'rining oldiga eltibdi. "Nega bu erda mening nomim yo'q?" deb bo'rivoy o'zining ismini qo'shib qo'yibdi. Keyin muallif kitobni yo'lbarsga olib boribdi. Yo'lbarsvoy ham ismlarini tirkabdilar. Sherga navbat kelganda u ro'yxatni ko'rib, "Quyvon bu erda nima qilib yuribdi?" deya uning nomini o'chirib tashlagan ekan...)* (Erkin A'zam, "O'zingiz ham o'qiganmisiz?" publitsistik miniatyurasi).

Ba'zan parantezalar va asosiy gap o'rtasidagi kommunikativ yo'nalishning farqliligi, ya'ni ikki sub'ektga tegishliligi juda aniq ifodalanadi. Go'yoki ikki so'zlovchining savol-javobi, dialogi ko'rinishini olishi mumkin, bunda, albatta, bayon egasi bitta bo'ladi, ammo vaqti-vaqti bilan ikkinchi bir ovoz paranteza shaklida ishtirok etadi. Matnda hissiy-estetik taranglik baralla namoyon bo'ladi. Mana bu parchada ana shu holatni ko'rish mumkin: *Mendan qarzing bormi, aka? Qarzing - akaligingmi? Akalik ham qarzga kirsa, buning to'lovi yo'qmikan? (Yo'q, bo'lmaydi ham.) Buning to'lovi – ukalikning o'zi, xolosmi? (Xolos!) Men uni qanday uzaman, qanday qaytaraman? (Onamizning suti misoli bu ham oldi-berdiga yotmaydigan bir a'moli nasiba, ukam!) Bilaman, sen mendan hech narsa kutmaysan, hech qachon. Nega bunday? Mening hamma ishim, hamma gapim — senga ma'qul. Odatda teskarisi bo'lishi kerak-ku?* (Erkin A'zam, "Javob" qissasi)

Matnning semantik tuzilishida predikativ kiritma birliklarning o'rnini tadqiq etgan V.A.Shaymiyev kiritma konstruksiyalar jummalarni turli ma'noviy-mazmuniy planlarda joylashtirish, jummalarda bir necha fikriy yo'nalishlarni hosil qilish imkonini yaratishiga to'xtalar ekan, ularning badiiy asarlarda bir qancha badiiy maqsadlarni ro'yobga chiqarishga yordam berishini aytadi. Xususan, biror narsa haqidagi bayon va bu bayonga yoki nutq denotatiga muallifning munosabatini birlashtirish; personajni "ichki" va "tashqi" nuqtayi nazarlardan tavsiflash; bir mazmuniy blokda hikoya qilishning har xil voqea-vaqt chiziqlarini yagonalashtirish; muayyan matn bo'lagida qahramon tasavvuridagi holatni ham, asl holatni ham birlashtirib ifodalash. Ayni paytda muallif "men"ning matnda ifodalanishining o'ziga xos vositalaridan biri ekanligi ham tadqiqotchi e'tiboridan chetda qolmagan.

Kuzatishlar kiritma konstruksiyalar muallifning turli izoh nutqini ifodalash usuli sifatida juda keng tarqalganini ko'rsatadi. Bunda muallif "men"i har xil namoyon bo'ladi. Muallif «men»i matnda ifodalanishining o'ziga xos vositalaridan biri sifatida parantez konstruksiyalar maydonga chiqadi. Masalan: *Surat negadir sarg'ayib ketgan (Habiba buvining ko'z yoshi tomaverib sarg'ayib ketganini keyin tushunganman)* (O'.Hoshimov, "Dunyoning ishlari" qissasi). *Baribir tilimni shuncha tishlasam ham yuragimni yorishtirgan savol og'zimdan chiqib ketdi.*

– *Ulardan xat keldimi?*

*(Qiziq, oyim bobomning ketidan, "ular" deb gapirardi. Hozir o'zim ham shunaqa deb yuborganimni bilib battar uyalib ketdim.)*

– *Keldi-keldi! – Oyim tag'in kuldi. – Sen o'qiydigan xatmas* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi" romani). Misollardagi kiritma konstruksiyalar muallif mulohazalaridir.

Qahramonlar xulqi, fikrlari, ko'rsatilayotgan hodisalarni baholashga, adabiy asarda muallif nuqtayi nazarini to'g'ri ifodalashga ehtiyoj tug'ilganda yozuvchi o'quvchiga murojaat tarzidagi parantezalardan ham foydalanadi: *Ko'p odamlarni kasallik emas, o'z nazdida o'zini o'zligidan kattaroq qo'yishdek xudbinlik, alamzadalik balosi kemirib ado qiladi. (Dono, boobro', xushro'y, buning ustiga qattiqqo'l, adolatli va jasur degan nom chiqarishni kim istamaydi?...) (Ch.Aytmatov, "Oq kema" qissasi).*

Badiiy matnda muallif nutqi va begona nutqning o'ziga xos tarzda qo'shib ketishi ham kuzatiladi. Bunda begona nutq ko'chirma gap, o'zlashtirma va o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Lekin biz to'plagan faktik materiallar begona nutq parantez konstruksiyalar vositasida ham ifodalanishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda begona nutq muallif hikoyasini to'xtatib kiritiladi. Badiiy matnda ko'p vaziyatlarda kiritma konstruksiyalar qahramon nutqini (uning tashqi nutqini) va mulohaza-o'ylarini (uning ichki nutqini) birga kiritishga imkon beruvchi vosita ekanligi bilan ham xarakterlanadi: *Aytishicha, oilada atigi ikki farzand ekanlar – bittagina ukasi bor ekan (demak, meni urolmaydi, akasi bo'lganda boshqa gap edi!); o'zi yolg'iz qiz ekan, erka qiz ekan – «Adam nima so'rasam olib beradilar»*

(*demak, sen ham olib berishing, qozon-tovoqni o'zing qilishing kerak*); *adasi asfalt zavodining direktori ekan (demak, asfalt kerak bo'lsa – marhamat!); buni qarang, mashinalari ham bor ekan – «Yap-yangigina turibdi, hech kim haydamaydi, adam «Dvijenie katta», deb qo'rqadilar» (demak, bemalol, asfaltni titig'ini chiqarib bemalol minaverasan!); darvozaxonalarida esa, uylarini va o'zlarini qo'riqlaydigan kattakon bir olaparlari bor ekan (demak, u ham kirgan chiqqanga tarjimai holini aytaveradi!)*... (Erkin A'zam, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi). Bunday holat ayrim yozuvchilar, xususan, E.A'zam asarlarida kuzatiladi. E.A'zam asarlari tilidagi bu lingvopoetik xususiyat D.Xudoyberganova tomonidan ham shunday ta'kidlangan: "Yozuvchi matn tuzar ekan, yashirin fikr ifodalashning original usulini qo'llaydi-personajning ichki va tashqi nutqini ayni bir vaqtda parallel tarzda beradi."

Ayrim hollarda qahramon yozuvchi tomonidan tavsiflanar ekan, shu qahramonning gapi aynan paranteza sifatida matnga olib kiriladi, bunday paranteza qahramon tavsifining yanada ta'sirli va aniq bo'lishini ta'minlaydi. Quyidagi parchalar bu fikrni dalillaydi: *Mana, maqsadiga yetdi: mashhur Otashqalbning sevikli Ma'shuqasi nomini oldi... Endi bu kabi adabiy yig'inlar u kishisiz, u kishining maroqli xotiralarisiz o'tmaydi. ("Oh, u meni qandoq sevardi, Ma'shuqabegim deya eru ko'kka ishonmasdi!")* (Erkin A'zam, "Shoirning to'yi" qissasi). *Alhazar! Ana shu mute-mayda gumashtalarga bosh-qosh bo'lgan mafkura sohasini o'sha kezlar kim boshqargan, bilmaysizmi, Mafkuraxon opa? (Asabiy hurpayib o'tirgan "opa"ning vajohatidan faqat bir gapni, faqat bir tilda kutish mumkin edi: "Знать не знаю и не хочу!")* (Erkin A'zam, "Shoirning to'yi" qissasi).

Ba'zan qahramon boshqaning nutqini tinglab o'tirarkan, boshqaning nutqi tarkibiga qahramon ko'nglidan o'tgan fikrlar paranteza shaklida ifodalanib kiritiladi, bunda ham paranteza kuchli poetik ta'kid oladi, hissiy-emotsional kontrast yuzaga keladi: *Hamma shu erda edi. Sizni rosa poyladik ("Poylabsiz-u, qo'ng'iroq qilish xayolingizga kelmabdi, qarang!") Bugun ularnikida bo'lamiz* (Erkin A'zam, "Bayramdan boshqa kunlar" qissasi).

Yana ayrim hollarda qahramonning nutqi tarkibiga uning qaerdadir kimdandir eshitgan mashhur gapi paranteza sifatida kiritiladi, bunda ham paranteza poetik aktuallik kasb etadi:

*Choynakda zahar borligini bilarmidingiz?*

*Zebi kuldi.*

– *Qiziq ekansan ("o'risni sizlab bo'lmaydi"), men qayerdan bilay?* (Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani).

Yozuvchi bayon nutqiga boshqaning nutqini ham paranteza shaklida aynan kiritishi mumkin, bunda ham parantezaning poetik aktuallashuvi kuzatiladi: *Javli yozin-qishin dashtda jafo chekib mol ketidan yuradigan ("O'g'lim o'qib odam bo'lsin") cho'pon otasining qo'ylari yordamida o'qimoqda* (Erkin A'zam, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasi). *Yaxshi-yomonning gap-so'ziga ham ("O'l-a, farzand bo'lmay!*

*Tufuging ham yo'qmi ko'zingga surtgani!*") pinak buzmasdi (Erkin A'zam, "Javob" qissasi). Bakir ko'pchilik oilalarda bir-ikki zamon hukm surgan qat'iy urfga ko'ra ("Bolamiz yo muzikaga borishi, yo sportga qatnashi shart!") darsdan ortib muzika maktabini ham o'qib bitirgan edi (Erkin A'zam, "Bayramdan boshqa kunlar" qissasi).

Parantez konstruksiyalarning matnga kiritilishi qahramon tavsifnomalarini "ichidan" (begona nutqning vositasi orqali) va «tashqaridan» (muallif nutqi yordamida) birlashtirishga imkon beradi. Demak, personaj "ichki" va "tashqi" nuqtayi nazarlar bilan kuzatiladi: *Shorahim salkam o'ttiz, balki o'ttiz besh yil bosh ko'tarmay ishlagan va nimasi bilandir o'z farzandiday qadrdon bo'lib qolgan bog'iga ko'zi tushganida yuragi "jiz" etib, a'zoyi badani jimirlab ketadi, garchi ishdan haydalgan bo'lsa ham shu topda shohlarida bitta yarimta olma va behilar qolgan (Shovvoz ularni jo'rtda "churvaqalar" uchun qoldirar, ular qishda bu bitta yarimta olma-yu, behilarni xazonlar orasidan qidirib, qushchaday chug'urlashib yurganlarini ko'rganida azbaroyi quvonganidan o'zi ham bolalarga qo'shib ketardi!)* bu sevimli bog'ini tashlab ketib to'g'ri qilyaptimi, yo'qmi buni o'zi ham bilolmay qoldi (O.Yoqubov, "Oq qushlar, oppoq qushlar" romani). *Marjonoy xizmat qilaverib, yurishga holi yo'q, yarim kechada o'tovga kirib endi divanga cho'zilgan edi (u boshqalarga namuna bo'lay deb, Marjontovdagi o'tovini ham sovxoz markazidagi uyiday saranjom-sarishta qilib qo'yardi) ostonada shirakayf, dimog'i chog' Burgut paydo bo'ldi* (O.Yoqubov, "Adolat manzili" romani).

Badiiy matnda yozuvchi qahramonlarning turli xususiyatlarini umumlashtirgan holda tasvirlovchi vositalarga murojaat etadi. Ulardan biri sifatida parantezalarga murojaat qiladi: *Ochiq savdoni qarang! Sharmandali savdo: sen - to'rt farzandning otasi, sochiga oq oralagan odam, o'g'ling tengi tirmizaklardan bas deguncha kaltak eb, endi da'vongdan kech, biz o'g'lingni kunduzgi bo'limga o'qishga o'tkazamiz...* (Qachon, qanday topishishdi-ya bular?!) (Erkin A'zam, "Javob" qissasi).

Parantezalar yordamida yozuvchi qahramonning yosh xususiyatlariga xos o'y-xayollarini ham tasvirlaydi va tinglovchida beixtiyor tabassum uyg'otadi, Quyidagi kontekstda ko'chani tasviri bolakay tilidan hikoya qilingan, paranteza poetik aktuallashgan: *Tor ko'chaga kirishimiz bilan yurish battar qiyinlashdi. Muncha ko'p bu odamlar. Chumoliga o'xshaydi-ya! Paranji yopinib boshiga tugun qo'yganча zippillab ketayotgan xotinlar, (hayronman, ushlamasayam, tuguni tushib ketmaydi) qop orqalagan kishilar, ko'mir ortilgan ot-aravalar...* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi" romani).

So'zlovchining kinoyali subyektiv munosabatini paranteza shaklida matnga kiritish fikrning o'ta ta'sirchanligi, ekspressivligi, emotsionalligi uchun xizmat qiladi. Bunda yuzaki qaraganda, so'zlovchi jiddiy gapirayotganga o'xshaydi, ammo uning gapi tagida haqiqiy ma'noga qarama-qarshi bo'lgan yashirin kulgi yotadi: *So'ng Po'lat papkaning kamtarligi tutib ketib "oddiy" paxtakorlar va studentlar bilan birga ovqatlanish istagini bildirdi. U burungidan ham battar jilpanglab, har so'zidan keyin*

*bir hiringlab, Shoqosimga xushomad qilardi. Nihoyat, Po'lat papka lablarini artib (Buni qarang, "oddiy" dehqonning egan ichgani ham xo'jayinlarining eganidan kam emas ekan!) o'rnidan turdi-da, Shoqosimning tirsagidan olib, sekin bir chekkaga boshladi.* (O.Yoqubov, "Oq qushlar, oppoq qushlar" romani). Muallifning kinoya ifodasidan iborat lingvopoetik maqsadi paranteza orqali amalga oshgan. Quyidagi parchada mikromatn shaklida kiritilgan parantezada ifodalangan kinoyaning lingvopoetik qimmatiga e'tibor qiling: *...Shahar markazidagi baland tepalikka o'rnashgan parlament saroyi qarshisida bo'y cho'zgan osmon barobar cho'ng haykal ham uniki!* (Aytishlaricha, O'rta Osiyodagi Toshkent degan shaharda ham jahon yo'qsillarining dohiysiga shunga yaqin bir haykal tiklangan ekan, ammo mustaqillikka chiqqach, sotsializm g'oyalarini rad etib, uni ag'darib tashlabdilar. Afsus, afsus! Yaxshilikni bilmaganlar! Mayli, o'zlaridan ko'rishsin, bir kun kelib pushaymon qilishlari muqarrar!) *Ha-ha, tovarish Xon Man Men bekorga yashagani yo'q!* (Erkin A'zam, "Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati" qissasi).

Yozuvchi parantezalardan qahramon individual xususiyatlarini ochishda o'rinli foydalanadi, ayniqsa, ritorik so'roq gaplar xarakterida kiritilgan parantezalarda hissiy-emotsionallik yuqori bo'lib, o'quvchining diqqatini personajning ruhiy dunyosiga tortadi: *Qiziq oyim harchand mehribonlik qilgani bilan o'rtamizda allaqanday to'siq turganga o'xshardi. U oyim bilan dadamning holini so'ramagani uchun men ham "dadam tuzukmi" demadim (Qanaqasiga dadam bo'lsin?!)* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi" romani).

Tilda badiiylikka xizmat qiluvchi vositalar qanchalik ajralib tursa ham, ularni badiiy matnga olib kirish ijodkorning mahoratiga bog'liq. Xalq tafakkuri durdonasi hisoblangan paremalarni badiiy-estetik vosita sifatida paranteza xarakterida berish asarning badiiyligini ta'minlashga va yozuvchining g'oyaviy maqsadini keng kitobxon ommasiga yetib borishiga zamin yaratadi: *Boyning maqtanchoq o'g'illari boshqalarni lol qoldirishni, shuhratlari olamga yoyilishini orzu qilishdi. Yana buning ustiga mangu uyquga ketgan shavkatli otalari Shoxdor ona bug'i avlodidan ekanligini hamma bilishi uchun uning qabriga bug'i shoxini o'rnatishni o'ylab topishdi. ("E bo'tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik – takabburlikni, takabburlik esa – telbalikni tug'diradi!")* (Ch.Aytmatov, "Oq kema" qissasi).

Umuman, badiiy matn yaratishda ishtirok etadigan sintaktik birliklar orasida parantezalar alohida o'rin tutadi. Ular personaj nutqini individuallashtirish, personajning muayyan ijtimoiy muhitga tegishli kishi ekanini ta'kidlash uchun ham vosita bo'ladi. Jumladan, varvarizmlarning badiiy matnda personaj nutqida qo'llanishi uning xarakter-xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi: *Yo'q Bargidani yomon deyish qiyin emas... Pismiq desa pismiqqa ham o'xshamaydi, chehrasi doim ravshan, lekin, mana, u bilan shuncha vaqt birga yashadi-yu, Bakir hamon bir holni hazm qilolmaydi, uning ayblarini, gunohlarini goh ixtiyoriy, goh beixtiyor kechirmoqqa majbur bo'ladi-yu, shunga qolganda ko'nikolmaydi, shunga qolganda qoni qaynab*

ketadi. “Ha, nima qipti?” (“Nu i chto?”) Bakirning nazarida bundan og‘ir, bundan be‘mani savol yo‘q (Erkin A‘zam, “Bayramdan boshqa kunlar” qissasi).

Parantezalarning lingvopoetik jihatdan ahamiyatli yana bir o‘ziga xos turi punktuatsion belgilar shaklida matnga kiritilib, badiiylikni ta‘minlash vositasiga aylanadi va lingvopoetik maqsadlar uchun xizmat qiladi. Biz punktuatsion parantezalar terminini qo‘llashni ma‘qul ko‘ramiz, I.Toshaliev o‘z tadqiqotlarida bu kiritmalarga nisbatan belgi-kiritma terminini qo‘llagan.

Bir-ikki misolni ko‘raylik: Kasalxonaga olib borsa, bundan melisa ogoh topadi, melisa bildimi, kavla-kavla boshlanadi. Busiz ham Shilimshiq bilan Jamshid (?) ning o‘limi ularning boshlari uzra balo bulutiday soya tashlab turibdi (Tohir Malik, “Shaytanat”romani). Matnga kiritilgan punktuatsion parantezani bu tarzda qo‘llashdan yozuvchining ko‘zlagan lingvopoetik maqsadini nutqiy vaziyatlarni to‘liq qamrab olgan kontekstgina ocha oladi. Asarning boshlanish qismida Shilimshiq bilan Jamshid vahshiy tarzda o‘ldiriladi. Lekin ularning o‘limi sabablari ochilmagan, aybdorlar kim ekanligi mavhumligicha qolgan. Chuvrindining xayolidan o‘tgan fikrlari bayonida muallifning so‘roq belgisini paranteza sifatida kiritishi o‘sha holatlarga ishoradir.

Muddao shu ediki, “Siz bilan biz endi bolalarimizning taqdirini o‘ylashimiz kerak. Mayda-chuyda **janjallar-u** so‘roq-tergovlar, **guvohlig-u** da‘vogarlik deganday mashmashalar bizga endi yarashmaydi. Aytishlaricha, qaltisroq ish ekan, nozik joylarga borib taqalarkan. Agar bu ish chuvalib ketgudek bo‘lsa, boshqa ba‘zi narsalar ham ochilib qolishi xavfi bor ekanki, unda ... chatoq bo‘lar ekan. Hammaga, Elchievga ham, Nodir Fayzullaevichning o‘ziga ham (!)”(Erkin A‘zam, “Javob” qissasi). Keltirilgan badiiy nutq parchasida qahramonning suhbatdoshi fikridan norozilik, unga nisbatan yuragida kechayotgan qarama-qarshi ziddiyatlar tadrijini ta‘kidlash maqsadida muallif punktuatsion parantezani kiritgan. So‘roq va taajjub ottenkasini o‘zida mujassam etgan tinish belgilar shaklidagi paranteza qahramon qalbidagi kechinmalarni bo‘rttirib, qabariqlashtirib aks ettirishga xizmat qilgan.

Xullas, parantezalarning lingvopoetik xususiyatlari juda ham katta va qamrovli muammo, ularni yanada kengroq, batafsilroq tahlil etish mumkin. Biz yuqorida bu lingvopoetik xususiyatlarning asosiy nuqtalariga diqqat qildik. O‘zbek adabiyotidagi nasriy asarlar tilini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O.Yoqubov, O‘.Hoshimov, Tohir Malik, Erkin A‘zam, Sh.Xolmirzaev, Xurshid Do‘stmuhammad kabi ko‘plab yozuvchilar o‘z asarlarida parantezalarning lingvopoetik imkoniyatlaridan barakali foydalanganlar. Ayniqsa, iqtidorli nosir Erkin A‘zam asarlarida parantezalar, xususan, ularning kiritma turi yozuvchining uslubini belgilaydigan darajadagi omillardan biriga aylangan. Uning deyarli barcha asarlarida parantezalar vositasidagi polifoniyani, bu polifoniyaning lingvopoetik qimmatini muntazam kuzatish mumkin.